



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№7



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 40 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli	20
Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili	26
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish	31
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
Korxonada iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli.....	35
Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi	



KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA DIVERSIFIKATSIYA STRATEGIYASINING ROLI

Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi

Namangan davlat texnika universiteti
"Marketing" kafedrasida tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada korxonalarda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli o'rganilgan. Iqtisodiy barqarorlikni boshqarishning strategik yo'nalishlari, korxonani diversifikatsiya qilishning ahamiyati va maqsadlari tahlil qilingan. Diversifikatsiyaning turlari va ularning asosiy xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, korxonada diversifikatsiya strategiyasini shakllantirish bosqichlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy barqarorlik, diversifikatsiya, strategik kontseptsiya, gorizontal diversifikatsiya, vertikal diversifikatsiya, konglomerat diversifikatsiya.

Abstract: This article examines the role of diversification strategy in ensuring economic stability in enterprises. It analyzes the strategic directions of economic stability management, the significance of diversification for enterprises, and its primary objectives. The article outlines the types of diversification and their key characteristics. It also presents the stages of developing a diversification strategy within an enterprise.

Key words: economic stability, diversification, strategic concept, horizontal diversification, vertical diversification, conglomerate diversification.

Аннотация: В статье рассматривается роль стратегии диверсификации в обеспечении экономической устойчивости предприятий. Проанализированы стратегические направления управления экономической устойчивостью, значимость и цели диверсификации предприятия. Освещаются виды диверсификации и их основные характеристики. Также показаны этапы формирования стратегии диверсификации предприятия.

Ключевые слова: экономическая устойчивость, диверсификация, стратегическая концепция, горизонтальная диверсификация, вертикальная диверсификация, конгломератная диверсификация.

KIRISH

Yangi O'zbekiston sharoitida sanoat korxonalarining mavjud iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, ularning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash hamda shu asosda sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, mahsulotlar bozorini kengaytirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash, mahsulot raqobatbardoshligini boshqarishni takomillashtirish, rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlash va mahsulot sifati orqali raqobatbardoshlikka erishish yo'lida taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Korxonaning iqtisodiy barqarorligini strategik boshqarish maqsadi korxonaning umumiy strategiyasi, ustuvor vazifalari hamda uni rivojlantirishga qaratilgan strategik yo'nalishlarga mos kelishi lozim.

Korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning asosiy maqsadi — hozirgi va istiqboldagi davrlar uchun iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash imkonini beruvchi zarur tashkiliy-iqtisodiy sharoitlarni yaratishdan iborat.

Sanoat korxonasining iqtisodiy barqarorligi — bu korxonaning rentabelligi va barqaror rivojlanishini ta'minlovchi, shuningdek, tashqi va ichki omillar ta'siri to'xtaganidan so'ng muvozanat holatini tiklash yoki yangi holatni qabul qilish imkonini beradigan iqtisodiy parametrlar darajasini saqlab qolish qobiliyatidir.

Korxonada faoliyatini diversifikatsiya qilishda samaradorlikka erishish uchun diversifikatsiyani boshqarish jarayonini ifodalaydigan uslubiy tavsiyalardan foydalanish taklif etiladi. Ushbu tavsiyalar korxonaga quyidagi yo'nalishlarda raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi:

- diversifikatsiya imkoniyatlarini va mavjud bozor sharoitlarini aniqlash va baholash;
- diversifikatsiya yo'nalishlarini belgilash hamda maqsadli bozor segmentlarini tanlash;
- tanlangan diversifikatsiya variantlarining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini baholash;



diversifikatsiya tadbirlarini rejalashtirish va ularni monitoring qilishni yo'lga qo'yish; diversifikatsiyalashgan mahsulot, xizmat yoki ish turlarining talabiga ta'sir ko'rsatish.

Tadbirkorlik subyektlari tomonidan ichki va tashqi bozorlarda kuchayib borayotgan raqobat sharoitida muqobil faoliyat yo'nalishlarini qidirish tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Diversifikatsiya siyosati korxonaning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim strategik yondashuvlardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot sur'atlarining tezlashuvi, iqtisodiyotning globallashuvi, raqobat kuchayishi, ishlab chiqaruvchilar oldida raqobatdosh ustunliklarni aniqlash va amaliyotga tatbiq etish masalalarini yanada dolzarb qilib qo'yimoqda. Shu bilan birga, bozor sharoitlari va atrof-muhitning dinamik o'zgarishi mahsulot assortimentini, ishlab chiqarish texnologiyasini hamda bozor faoliyatini doimiy yangilab borishni talab qilmoqda. Shu sababli, bozorda o'z o'rnini mustahkamlashga intilayotgan tadbirkorlik subyektlari kamida bir nechta diversifikatsiyalashgan mahsulot yoki xizmat turlariga ega bo'lishi lozim.

Yuqori raqobatbardoshlik, bozor kon'yunkturasi beqarorligi va iste'molchilarning tez o'zgaruvchan talablari bilan xarakterlanuvchi zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalar samarali strategik boshqaruvni talab qiluvchi qator muammolarga duch kelmoqda. Bunday sharoitda biznesning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim vositalardan biri — bu diversifikatsiya strategiyasidir. Mazkur strategiya tovar va xizmatlar assortimentini kengaytirish, yangi bozorlarga chiqish, bozor segmentlari yoki mahsulot turlariga qaramlikdan kelib chiqadigan xatarlarni kamaytirish imkonini yaratadi.

Korxonani diversifikatsiya qilish zarurati odatda asosiy biznes yo'nalishlarida ishlab chiqarish samaradorligining ichki zaxiralari tugagan holatlar yoki o'z kapitalini ko'paytirish istagidan kelib chiqadi. Shu bois, diversifikatsiyani nafaqat korxonaning inqirozining oldini oluvchi vosita, balki uni istiqbolli va barqaror rivojlantirish strategiyasi sifatida ham ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Diversifikatsiya strategiyasini tanlagan korxonalar bozor ulushini kengaytirish maqsadida mahsulotlarning turli modifikatsiyalarini ishlab chiqarishga intilmoqda. Bu strategiya odatda mahsulot assortimentini kengaytirish (o'sish strategiyasi), yangi bozorlarni o'zlashtirish (bozor kengaytmasi strategiyasi) yoki ushbu ikki yondashuvning birgalikdagi qo'llanilishi orqali amalga oshiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining o'rni so'nggi yillarda iqtisodiy tadqiqotlar va amaliyotda keng muhokama qilinayotgan dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Diversifikatsiya strategiyasi korxonalar bozor beqarorligi, texnologik o'zgarishlar va global raqobat sharoitida bardavom saqlash vositasi sifatida ko'riladi. Shu bois, sohada yetakchi mutaxassislar tomonidan diversifikatsiya tur va shakllari, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri, shuningdek, strategik boshqaruvdagi o'rni chuqur o'rganilmoqda.

Ansoff I. va McDonell E. (1990) o'zlarining "Implanting Strategic Management" asarlarida diversifikatsiyani strategik boshqaruv jarayonining muhim elementi sifatida ta'riflab, u orqali korxonaning o'sish istiqbollari aniqlash va raqobatbardosh ustunlikka erishish imkoniyatlarini tahlil qiladilar. Ularning tadqiqotlari diversifikatsiyaning vertikal, gorizontal va konglomerat shakllarini ajratib ko'rsatgan holda, har birining o'ziga xos tavsifi va sharoitlarga moslashuvchanligini yoritadi.

Klassik iqtisodchi M. Porterning "Competitive Strategy" (1980) asarida esa, tarmoq tahlili va raqobat ustunliklari bilan bog'liq diversifikatsiya strategiyalari, ayniqsa, ishlab chiqaruvchilar uchun raqobatbardosh bozor strukturalarida o'z o'rnini topish va qarorlar qabul qilishda qo'llanishi mumkin bo'lgan metodlar yoritilgan. Porter diversifikatsiyani strategik joylashuv bilan bog'liq holda baholaydi va uni korxonaning resurslarini optimallashtirish vositasi sifatida talqin qiladi.

Kotler F. (2005) tomonidan ilgari surilgan marketing strategiyalarida esa, diversifikatsiya bozor segmentatsiyasi, mahsulot turlarini kengaytirish va iste'molchi ehtiyojlarini kompleks tahlil qilish vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. U ayniqsa, "gorizontal diversifikatsiya"ning mavjud bozorlar doirasida yangi mahsulotlar ishlab chiqish orqali korxonaning daromadlarini barqarorlashtirishdagi roliga urg'u beradi.

Harrigan K. R. (1980) "Strategies for Declining Businesses" asarida, biznesning pasayish bosqichida diversifikatsiyaning muhimligini ko'rsatadi. Unga ko'ra, so'nayotgan mahsulotlar bozorida yangi yo'nalishlarga o'tish, kapital oqimini optimallashtirish, korxonaning resurslaridan qayta foydalanish orqali mavjud muammolarga samarali yechim topish mumkin.

O'zbekistonda ushbu mavzu bo'yicha Kamalov A.A., Mamanazarov A.B., To'laxo'jaeva M.M. kabi mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham e'tiborga loyiqdir. Ular o'z izlanishlarida korxonaning barqarorligini ta'minlashda soliq va moliyaviy mexanizmlarning o'rni, mahalliy bozordagi risklar va resurs taqsimoti muammolarini tahlil qilgan holda, diversifikatsiya strategiyasini joriy etishning milliy modelini taklif qiladilar.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy adabiyotlar diversifikatsiya strategiyasining samaradorligini ta'minlovchi muhim omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatmoqda: korxonaning ichki salohiyatini baholash, tashqi bozor



kon'yunkturasini tahlil qilish, strategik rejalashtirish, risklarni boshqarish va innovatsion yondashuvlarning integratsiyasi. Shuningdek, har bir korxonaning xususiyatidan kelib chiqib, diversifikatsiya shaklini moslashtirish zarurligi ham ko'plab tadqiqotlarda ta'kidlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Korxonada diversifikatsiya maqsadlari quyidagilardan iborat bo'ladi:
 yangi mahsulot bozorlarini egallash;
 mahsulot turlarini kengaytirish;
 korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holatini yaxshilash;
 ishlab chiqarishni bozor talablariga mos ravishda yo'naltirish;
 mahsulot hayot tsiklining pasayish bosqichidagi xatarlarni kamaytirish;
 raqobatbardoshlikni oshirish;
 ilmiy-texnik baza va ishlab chiqarish texnologiyalarini yangilash;
 mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish.

Diversifikatsiya strategiyasi ilmiy-tadqiqotlar obyekti sifatida keng qamrovli ahamiyat kasb etadi. Chunki u marketing, strategik boshqaruv, moliyaviy rejalashtirish va risklarni boshqarish sohalari bilan uzviy bog'liqdir. Ilmiy va amaliy izlanishlar davomida gorizontol, vertikal hamda konglomerat diversifikatsiya turlari atroflicha tahlil qilinmoqda.

Strategiyaning optimal variantini tanlash uchun diversifikatsiya turlarining asosiy xarakteristikallari, afzalliklari va kamchiliklarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Diversifikatsiya turlari quyidagilardan iborat:

- Vertikal diversifikatsiya
- Gorizontol diversifikatsiya
- Konglomerat diversifikatsiya

Turli faoliyat sohalari va mulkchilik shakllariga ega xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan diversifikatsiya strategiyasidan foydalanish o'zini oqlaydi. Chunki bu yondashuv ixtisoslashuv doirasini kengaytirish, vertikal integratsiyani chuqurlashtirish, tarmoqlararo aloqalarni tiklash, yangi tashabbus va samarali qarorlarning shakllanishiga zamin yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Vertikal diversifikatsiyaning asosiy jihatlari

Xususiyatlari:

Texnologik va marketing nuqtai nazaridan yangi ishlab chiqarish korxonaning mavjud ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'ladi.

Barcha butlovchi qismlar, detallar va materiallarni ishlab chiqarish yoki ularni nazorat qilish maqsadida faoliyat doirasi kengaytiriladi.

Vositachilar va yetkazib beruvchilarni o'zlashtirish orqali ta'minot zanjiriga to'liq egalik qilinadi.

Xom-ashyodan tortib tayyor mahsulotgacha bo'lgan butun ishlab chiqarish zanjiri nazorat ostiga olinadi.

Afzalliklari:

Yuqori nazorat imkoniyatlari orqali harakatlarning muvofiqlashtirilishi ta'minlanadi.

Korxonada iqtisodiy munosabatlar barqaror bo'ladi.

Moddiy-texnika resurslari bilan kafolatli ta'minlanish imkoniyati yaratiladi.

Yakuniy iste'molchilar bilan bevosita aloqada bo'lish imkoniyati paydo bo'ladi.

Kamchiligi: bozorlarning cheklanganligi.

Gorizontol diversifikatsiyaning asosiy jihatlari

Xususiyatlari:

Mavjud assortiment bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, ammo mavjud mijozlarga yo'naltirilgan yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki sotishga qaratiladi.

Mijozlarning ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi yangi biznes sohalariga kirish amalga oshiriladi.

Afzalligi: iste'molchilarning ehtiyojlari chuqur o'rganiladi va hisobga olinadi.

Kamchiligi: bozor imkoniyatlarining cheklanish xavfi mavjud.

Konglomerat diversifikatsiyaning asosiy jihatlari

Xususiyatlari:

Yaratilayotgan yangi mahsulotlar mavjud texnologiya yoki mavjud mijozlarning ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lmaydi.



Katta hajmdagi moliyaviy sarmoyani talab qiladi, shuning uchun faqat yirik korxonalar uchun mavjud bo'ladi. Afzalliklari:

Moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Ayrim tovarlarga talabning pasayishi bilan bog'liq xatarlar kamaytiriladi.

Kamchiliklari:

Turli turdagi korxonalar va bo'linmalarni tartibga solish murakkab kechadi.

Strategik muammolarni tahlil qilish murakkab bo'ladi.

Strategik rejalarni aniqlik bilan baholash qiyinlashadi.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishning eng keng tarqalgan shakli konglomerat diversifikatsiya hisoblanadi. Garchi bu turli mamlakatlarda o'ziga xos tarzda rivojlangan bo'lsa-da, AQSHdagi konglomeratlar o'zaro ishlab chiqarish aloqalariga ega bo'lmagan yirik kompaniyalar birikmasini anglatadi. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida esa ular, aksincha, ma'lum ishlab chiqarish zanjirida ishtirok etuvchi subyektlardan iborat bo'ladi.

Tijorat korxonalarini uchun diversifikatsiya jarayonini chuqur o'rganish va amaliyotga tadbiiq etish — nafaqat daromadlarning barqarorligini ta'minlash, balki tashqi muhitdagi o'zgarishlarga, xususan iqtisodiy inqirozlar, iste'molchilarning xatti-harakatlari va texnologik yangiliklarga moslashish imkonini ham beradi. Shu sababli, diversifikatsiya strategiyasi uzoq muddatli raqobatbardoshlik va barqaror o'sishni ko'zlagan korxonalar uchun asosiy muvaffaqiyat omilidir.

Diversifikatsiyaning strategik afzalliklari bir nechta omillar orqali belgilanadi. Eng muhimlari quyidagilardan iborat:

Biznesni axborot bilan ta'minlash holatini yaxshilash, marketing tadqiqotlarini Biznesni axborot bilan ta'minlash holatini yaxshilash, marketing tadqiqotlarini integratsiyalash imkoniyati;

Marketing va reklama xarajatlarini kamaytirish;

Texnologiyalar o'zgarishi hisobiga ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik ishlanmalarini hamkorlikda amalga oshirish imkoniyati;

Ta'minot kanallari, marketing, xizmat va sifat darajalarini oshirish orqali mahsulotlarni solishtirish imkoniyatining yaratilishi, bu ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri integratsiya sharoitida seziladi.

Sanoat korxonasining ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashni asoslashda tarkibiy yondashuv yangi savdo bozorlarini egallash va ilgari o'zlashtirilgan ishlab chiqarish turlariga bo'lgan talabning kamayishi kabi xatarlarni kamaytirish imkonini beradi. Bu esa bir mahsulotga asoslangan bir tomonlama ishlab chiqarishdan, keng assortimentga ega ko'p profilli ishlab chiqarish tizimiga o'tishni anglatadi.

Shunday qilib, diversifikatsiya strategiyasini asoslash uchun quyidagi strategik kontseptsiyalarni amaliyotga joriy etish lozim:

Ishlab chiqarishni aholining o'zgaruvchan ehtiyojlariga moslashtirish;

Ishlab chiqarish tarkibini funksionaldan mahsulotga o'zgartirish;

Bozordagi talabni hisobga olgan marketing strategiyasini ishlab chiqish;

Korxonaning umumiy boshqaruv strategiyasini korporativ strategiyaga qayta yo'naltirish, bu esa yangi tashkiliy-huquqiy ko'p tarmoqli tuzilmalar shakllanishi bilan amalga oshiriladi.

Diversifikatsiya yangi bozorlarga kirish va yangi mijozlarni jalb qilish imkoniyatlarini yaratadi, bu esa o'z navbatida bozor ulushi va savdo hajmining ortishiga xizmat qiladi. Diversifikatsiya strategiyasidan foydalanish innovatsiyalarni joriy etish, yangi texnologiyalarni tatbiq etish imkonini beradi, natijada korxonalar raqobatbardosh mavqegini saqlab qoladi va iste'molchilarga qo'shimcha qiymat yaratadi.

Diversifikatsiya strategiyasi savdo korxonalariga bozordagi o'z pozitsiyalarini mustahkamlash, risklarni kamaytirish va uzoq muddatli o'sishni ta'minlash uchun muhim imkoniyatlarni yaratadi. Biroq undan samarali foydalanish uchun har bir bosqichni puxta rejalashtirish hamda bozor sharoitlarining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qilish lozim. O'zbekiston sharoitida korxonalarini diversifikatsiyalashni boshlashda ushbu sohada yetarli darajada siyosat yuritgan mamlakatlar tajribasini o'rganish alohida ahamiyatga egadir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonalar iqtisodiy barqarorligini ta'minlash bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Diversifikatsiya strategiyasi esa aynan ushbu barqarorlikni mustahkamlashda asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, diversifikatsiya orqali korxonalar nafaqat daromad manbalarini kengaytiradi, balki bozor xavflarini kamaytirish, raqobatbardoshlikni oshirish hamda tashqi muhitdagi salbiy ta'sirlarga nisbatan chidamlilikni kuchaytirishga ham erishadi. Diversifikatsiya strategiyasining muvaffaqiyati, eng avvalo, uning puxta rejalashtirilganligi, bozor sharoitlariga mosligi va mavjud resurslardan oqilona foydalanilganligiga bevosita bog'liqdir. Shu bilan birga, mazkur strategiyani muvaffaqiyatli amalga



o'shish korxonasi ichki salohiyatini to'g'ri baholash, mavjud imkoniyatlarni aniq belgilash va innovatsion yondashuvlarni samarali qo'llashni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ansoff I., McDonell E. *Implanting Strategic Management*. Prentice Hall, 1990 – 568 b.
2. Kotler F. *Marketing XXI veka. Marketing ot A do Ya. Novye marketingovye texnologii. Desyat smertnyx grexov marketinga / tarj. ingliz tilidan, tahrir T.R.* – Sankt-Peterburg: Neva, 2005 – 432 b.
3. Porter M.E. *Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors*. New York, 1980 – 67 b.
4. Harrigan K.R. *Strategies for Declining Businesses*. Canberra: National Library of Australia, 1980 – 424 b. (<https://catalogue.nla.gov.au>)
5. Rumelt R. *Strategy, Structure and Economic Performance*. Harvard University Press, 1974 – [sahifa soni ko'rsatilmagan].



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>